

## FARG'ONA VODIYSIDA TARQALGAN BURCHOQDOSHLAR OILA VAKILLARINING MORFOLOGIYASI VA HAYOTIY SHAKILLARI

**Jumanazar Mamarasulov**

*FarDU, Botanika va biotexnologiya kafedrası o'qtuvchisi*

Tarkibida oqsil va uglevod miqdori yuqori bo'lgan bug'doy, makkajo'xori, lavlagi, soya va boshqa ekinlarni ekishga mamlakatimizda katta ahamiyat berilmoqda. Dukkakli o'simliklar yoki barcha o'simliklar ichida o'zining tarkibida yuqori miqdorda oqsil va moy saqlovchi soya o'simligi alohida o'ringa egadir. O'simlik oqsillari ichida birgina soya oqsili o'zining ximiyaviy tarkibi jixatida hayvon oqsiliga o'xshaydi. Hozirgi kunda yer sharidagi rivojlangan mamlakatlarda chorva mollari ozuqasida asosiy rolni dukkaklilar oilasiga mansub soya doni mahsulotlari egallaydi. Soya donining tarkibida 40-45 foiz oqsil va 22-25 foiz moy bo'lib, soya oqsilida inson va hayvon organizmi uchun zarur bo'lgan jami aminokislotalar mavjud. Yer shari dehqonchiligi qolaversa O'zbekistonda tarkibida oqsil miqdori yuqori bo'lgan osimliklarni ekish ularning maydonlarini kengaytirish va hosildorlikni oshirish bu kunning eng muhim masalalaridan biri bo'lib qoladi. Ayniqsa Respublikamizda g'o'za – g'alla amashlab ekish sharoitida tuproq unumdorligini saqlash, dehqon fermerlar uchun qo'shimcha mahsulot va daromad olishni ta'minlash maqsadida soya bilan boshqa dukkakli o'simliklardan takroriy ekin sifatida foydalanish shu kunning dolzarb muamosidan hisoblanadi.

Burchoqdoshlar (Fabaceae-Бобовые) — magnoliyatoifa o'simliklar bo'limi, magnoliyasimonlar ajdodi, ra'nokabilar qabilasiga mansub oila[5]. Ko'proq bir yillik yoki ko'p yillik o'tlar, yarimbuta, buta yoki daraxtlardan iborat. Oila vakillarining ildizi-o'q ildiz tizimli. Ildizida tugunak bakteriyalar hamkorlikda hayot kechiradi. Ular shu o'simliklar ildizida yashab, havodagi erkin azotni o'zlashtiradi. Tugunak bakteriyalar tuproqni azotli birikmalarga boyitib, tuproq hosildorligini oshiradi. Poyalari tik o'suvchi, ilashuvchi, o'raluvchi yoki yotib o'suvchi bo'ladi. Ko'pchiligida barglar murakkab yoki oddiy, yonbargchali yoki yonbargchasiz bo'lib, o'ziga xos tuzilishga ega, uchbargchali, toq yoki juft patsimon, ikki karra patsimon murakkab barglar uchraydi, ketma-ket joylashgan. Ba'zi o'simliklar yonbargchalaridan yoki toq patsimon murakkab barglarning uchidagi toq bargchasidan tikan hosil bo'ladi. Yaxshi rivojlanmay nobud bo'lgan toq bargcha o'rnida tikan hosil qilishi mumkin. Gullari qiyshiq, ikki jinsli, shingil, bosh(kallak)cha xilidagi to'pgulga joylashgan Gulkosachasi yarmigacha qo'shilgan 5 ta gulkosachabargdan tashkil topgan. Gultoji kallak shaklida bo'lib, 5 ta gultojobargdan hosil bo'lgan. Ikki yon tomonda tagida joylashgan 2 ta qo'shilgan gultojobarg - "qayiqcha", ikki yonida joylashgani - "qanotcha" ("eshkakcha"), ular ustida yirikrog'i - "yelkancha" ("bayroqcha") deyiladi. Changchilari 10 ta, ulardan 9 tasining iplari bir-biri bilan qo'shilib ketgan, o'ninchisi esa erkin, urug'ochisi 1 ta. Ko'pincha xashorotlar

yordamida chaglanadi. Mevasi dukkak, 1 ta mevabargdan iborat. Quruq yoki sersuv, bir yoki ko'purug'li bo'lib, yuqoridan ikki pallaga bo'lib ochiladi .

Yantoq Ozbekistonda 2 ta turi o'sadi, soxta yantoq (Alhagi pseudalhagi Fisch) va qirg'iz yantog'i (Alhagi kirghisorum schrenk) Bo'yi 40-110 sm. Bargi mayda qo'ltig'ida tikoni bor, poyada ketma-ket joylashgan. Guli mayda qizil yoki pushti may-sentyabrda gullaydi, avgust oktyabrda urug' beradi. Mevasi dukkak meva cho'ziq 1-1,5 smli ko'p urug'li.

### **SHIRINMIYA (GLYCYRRHIZA GLABRA)**

Qizilmiya – dukkakdoshlarga mansub ko'p yillik ildizpoyali begona o't. Poyasi sershox dag'al, bo'yi 40-150 sm, tik o'sadi. Barglari toq patsimon, uzunligi 8-20 sm. Gullari binafsha rang, zigomorf, ikki jinsli, shoda to'pguli aprel-iyunda gullaydi va mevalaydi, mevasi 3-7 urug'li dukkak, urug'l qattiq qobiqli 30-35°C da ko'karadi. Ildizi va ildizpoyalarida glitserizin kislotaning 3-24%, glukoza-8%, saxaroza-11%, krahmal-34%. Suvda ekstraksiyaga uchraydigan moddalarning miqdori 43% ga yetadi.

### **QASHQARBEDA**

Qashqarbeda – ikki yillik begona o't. O'zbekistonda sariq qashqarbeda va oq qashqarbeda turlari uchraydi. Poyasi tik o'sadi, sershox, bo'yi 50 – 150 sm. Barglari uchbargchali, ketma – ket joylashgan. Gullari sariq, shingil to'pgulda joylashgan. Mevasi 1 – 2 urug'li dukkak. Ikkinchi yili iyun – avgustda gullaydi va iyul – sentabrda mevalaydi.

Oqquray Oqquray ( Psoralea L.) – Dukkakdoshlar oilasiga mansub o'tlar turkumi, ko'p yillik o'simlik. O'zbekistonda ( P. drupacea Bge.) dukkakli Oqquray turi uchraydi. Ildizi yo'g'on va uzun. Poyasi tarvaqaylab shoxlangan, uzunligi 130 sm gacha. Barglari oddiy, yaxlit, yumaloq yoki uch bo'lakli, cheti arrasimon, bandili, ketma – ket joylashgan. Guli mayda to'pguli shingilsimon, gultoji binafsha rang. Gulkosalariko'ng'iroqsimon, 5 tishli. Mevasi bir urug'li dukkak. Iyun – sentabr oylarida gullab urug'laydi. Madaniy holda o'suvch burchoqdoshlar vakillari

Oq akatsiya ( Rbinia pseudoacacia L.)

Dukkakdoshlar oilasiga mansub daraxt turi. Bo'yi 20 – 30 m. Bargi uzun bandli, uzunligi 10 – 25 sm, patsimon murakkab; har bir bargi 5 – 12 juft yaproqchali. Gullari oq, hidli, shirali, to'pguli shingilsimon. Dukkagi tuksiz uzunligi 5 – 7 sm. Aprelning oxiri – mayning boshida gullaydi, oktyabrda meva tugadi.

### **SOYA (GLYCINE HISPIDA L )**

Dehqonchilikda madaniy turi - G. hispida Max keng tarkalgan. Bo'yining balandligi naviga qarab 60-125 santimetr gacha yetadi. Ildiz sistemasi juda yaxshi rivojlangan. Ildizi-o'q ildiz, mayda va uzun yon ildizlari juda ko'p. 2 metr chuqurlikkacha kirib boradi. Yon shoxlari soni 2-9 ta va undan ham ko'proq bo'lishi mumkin. Birinchi shoxlari sinib qoladi, ko'pincha poyaning shakli piramidasimon, yoyiq, tarqoq bo'ladi. Barglari murakkab uchtalik, ba'zan beshtalik ham bo'lishi mumkin. Bargning uzunligi 5-16 santimetr, eni 3-10 santimetr bo'lishi mumkin. Poyaning panasidagi barglar mayda va siqiq, bir o'simlikda 15-20 dan 170 tagacha

bo'ladi Gullari shingil deyiladi. Asosan barg qo'ltig'ida joylashadi. Juda mayda rangi binafsha, pushti rangda. Dukkaklari ikki qobiqdan iborat bo'lib, 1-2-3 dona urug' joylashadi, ba'zan 4-5 taliklari

uchraydi. Quruq havoda yorilib ketadi. Rangi qora, qo'ng'ir, to'q qizil, sariq va ochyashil tusda. Dukkaklar pisha boshlaganda o'simlik poyasi sariq, qo'ng'ir yoki malla tusga kiradi.

### LOVIYA (PHASEOLUS)

Loviya dukkaklilar oilasiga mansub bir yillik va ko'p yillik o'simlik. Hindiston, Braziliya, Xitoyda kattamaydonlarda yetishtiriladi. O'zbekistonda qadimdan oddiy loviya ekiladi. Ildizida tugunaklari rivojlanadi, o'q ildizli tuproqqa 1 – 1,5 m chuqurlikkacha kirib boradi. Poyasi o'tsimon, shoxlanadi, ayrim turlari chirmashib o'sadi 3 – 4 metrgacha yetadi. Bargi murakkab 3 bargchali, toq patsimon. Guli ikki jinsli, barg qo'ltig'ida bittadan yoki shingil to'pgulda joylashgan. Mevasi dukkak rangi och pushti yoki to'q jigarrang. Dukkagida 6 – 12 ta urug' bo'ladi. Urug'l buyraksimon, rangi oq, sariq, pushti va boshqa rangda. Doni tarkibida 20-31% oqsil, 0,7-3,6% moy, alkil kislota mavjud.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Karimov V., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar. —Toshkent, 1993.
2. Kursanov A. I. vaboshqalar. Botanika 2-tom –Toshkent, 1963.
3. Mustafoyev S.M. Botanika –Toshkent, 2002.
4. Nabiyev M. Botanika atlas-lug'ati. —Toshkent, 1969.
5. Oripov R.O, Xalilov N.X. O'simlikshunoslik –Toshkent, 2007.
6. Prator O.P, Nabiyev M.M.  
O'zbekistonyuksako'simliklarning zamonaviy tizimi –Toshkent, 2007
7. Normatova, S. A., Botirov, M. T., Ruzmatova, K. K., & ugli Mamarasulov, J. O. Hygienic Basis for Contamination of Food Products and Production of Dairy Products Until 2030. International Journal of Health and Medical Sciences, 4(1), 123-128.
8. Botirov, M. T., Normatova, S. A., NIZAMETDINOVA, M., SHODMONOV, U., & MAMARASULOV, J. (2021). INFLUENCE OF OIL AND OIL PRODUCTS ON LIVING ORGANISMS AND METHODS OF SOIL PURIFICATION FROM OIL PRODUCTS. Asian Journal of Advances in Research, 28-32.
9. Mamarasulov, J. (2022). FABACEAE FAMILY IN FLORA IN THE FERGANA VALLEY, RARE SPECIES OF ASTRAGALUS. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(11), 117-119.